

"O'ZSANOATQURILISHBANK" OATB

"O'ZBEKISTON SANOAT QURILISH BANKI" OCHIQ AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN
TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI
M A T E R I A L L A R I

Toshkent, 2014 yil 13 iyun

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI QATNASHCHILARIGA TAQDIM ETILADIGAN MATERIALLAR RO'YXATI

1. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI KUN
TARTIBI

2. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI
O'TKAZISH TARTIBI

3. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI KUN TARTIBINING 1-MASALASI
BO'YICHA MA'LUMOT VA TAKLIF

4. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI KUN TARTIBINING 2 VA 3-
MASALALARI BO'YICHA MA'LUMOT VA TAKLIF

5. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI KUN TARTIBINING 4-MASALASI
BO'YICHA MA'LUMOT VA TAKLIF

6. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHI
QARORINING LOYIHASI

7. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2014 YIL 23 MAYDAGI
2179-SONLI "O'ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANK" OCHIQ AKSIYADORLIK
TIJORAT BANKI KAPITALLASHUVINI OSHIRISHNING QO'SHIMCHA CHORA -
TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI QARORI NUSXASI

8. YANGI TAHRIRDAGI BANK USTAVI VA NIZOMLARI LOYIHALARI

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINING KUN TARTIBI

TOSHKENT SHAHRI

2014 YIL 13 IYUN
BOSHLANISHI: 11:00

1. BANK NOMINI O'ZGARTIRISH;
2. BANK USTAVINI YANGI TAHRIRDA TASDIQLASH;
3. BANKNING "AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI TO'G'RISIDA"GI, "SANOQ KOMISSIYASI TO'G'RISIDA"GI, "BANK KENGASHI TO'G'RISIDA"GI, "BANK BOSHQARUVI TO'G'RISIDA"GI VA "BANK TAFTISH KOMISSIYASI TO'G'RISIDA"GI NIZOMLARIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH;
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2014 YIL 23 MAYDAGI 2179-SONLI "O'ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI" OCHIQ AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI KAPITALLASHUVINI OSHIRISHNING QO'SHIMCHA CHORA - TADBIRLARI TO'G'RISIDA" GI QARORINI MUHOKAMA QILISH VA USHBU QARORDA BELGILANGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISH.

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH
TARTIBI (REGLAMENTI)

TOSHKENT SHAHRI

2014 YIL 13 IYUN
BOSHLANISHI: 11:00

YIG'ILISH ISHTIROKCHILARINI RO'YXATDAN O'TKAZISH	10:00 - 10:50
UMUMIY YIG'ILISH RAISING KIRISH SO'ZI	11:00 - 11:05
BANK SANOQ KOMISSIYASINING YIG'ILISH KVORUMI HAQIDAGI MA'LUMOTI	11:05 - 11:10
TASHKILIY MASALALAR: YIG'ILISH ISHCHI ORGANLARINI SAYLASH YIG'ILISH KUN TARTIBI VA UNI O'TKAZISH TARTIBINI KELISHIB OLISH	11:10 - 11:20
KUN TARTIBIDAGI MASALALARNI KO'RIB CHIQISH	11:20 - 11:40
KUN TARTIBIDAGI MASALALAR BO'YICHA OVOZ BERISH	11:40 - 11:50
SANOQ KOMISSIYASINING OVOZ BERISH YAKUNLARI BO'YICHA MA'LUMOTI	11:50 - 11:55

**Aksiyadorlarning navbatdan tashqari
umumiy yig'ilishi kun tartibining
1-masalasi bo'yicha ma'lumot va taklif**

HURMATLI AKSIYADORLAR!

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining yangi tahriri qabul qilindi va 2014 yil q maydan kuchga kirdi. Avval amalda bo'lgan qonunning 5-moddasiga binoan aksiyadorlik jamiyatlari ochiq yoki yopiq shaklda bo'lishi belgilangan edi. Ushbu qonunning yangi tahririda esa aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq yoki yopiq shakllari nazarda tutilmagan. Yangi tahrirdagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga ega bo'ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishi mumkin. Vakolatli davlat organi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazi tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarining nomlari yangi taxrirdagi qonunga moslashtirilishi talab etilmoqda.

Shu munosabat bilan Bankning nomidagi "ochiq" so'zlari chiqarilib, uning nomini "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki"ga o'zgartirish taklif qilinmoqda.

Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.

Bank Kengashi

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari
umumiy yig'ilishi kun tartibining
2 va 3-masalalari bo'yicha
ma'lumot va taklif

HURMATLI AKSIYADORLAR!

2014 yil q maydan kuchga kiritilgan yangi taxrirdagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun bilan aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy maqomi, faoliyati, ularning boshqaruv organlari vakolatlariga doir bir qator juda muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari ochiq va yopiq turda bo'lishi bekor qilindi, aksiyadorlik jamiyatlarining ustavida ko'rsatilishi majburiy bo'lgan normalar qisqartirildi, aksiyalarning nominal qiymati besh ming so'mdan ko'p bo'lmasligi qat'iy ko'rsatib qo'yildi, umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish tartibi soddalashtirildi, boshqaruv organlari vakolatlari doirasi o'zgartirildi, yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish tartiboti qisman o'zgartirildi va boshqa ko'plab yangi norma va qoidalar joriy etildi.

Vakolatli organ hisoblanuvchi qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazi va o'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari - tijorat banklaridan ularning Ustavlari va boshqa korporativ ichki hujjatlarini yangi taxrirdagi qonunga moslashtirish talab etilmoqda.

Bank Ustaviga va ichki me'yoriy hujjatlariga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar soni ko'pligi va ularga avval bir necha marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini sababli, ulardan ishda foydalanishni qulaylashtirish uchun yangi tahrirda qabul qilish taklif etilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, Bank Ustavi, "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, Bank Kengashi to'g'risida"gi, "Bank Boshqaruvi to'g'risida"gi, "Taftish komissiyasi to'g'risida"gi va "Sanoq komissiyasi to'g'risida"gi, Nizomlarni yangi tahrirda tasdiqlashni so'raymiz.

Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.

Bank Kengashi

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari
umumiy yig'ilishi kun tartibining
4-masalasi bo'yicha ma'lumot va taklif

HURMATLI AKSIYADORLAR!

"o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 23 maydagi 21qh-sonli "O'zbekiston sanoat - qurilish bank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki kapitallashuvini oshirishning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan "o'zsanoatqurilishbank" OATB Ustav kapitalini 2014-2016 yillarda 152,2 mln. AqSh dollari ekvivalenti miqdorida oshirish belgilangan. Shundan, Bank Ustav kapitaliga Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan bevosita 100 mln. AqSh dollari miqdorida mablag' kiritilishi ko'rsatilgan.

Ushbu qarorga asosan Bankning Ustav kapitali ko'paytirilishi uning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash bilan birga, kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor sohalaridagi yirik va muhim loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini oshiradi, iqtisodiy normativlarga rioya qilinishi hamda xalqaro reyting kompaniyalarining ijobiy xulosasini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan lozim bo'lgan barcha vazifalarni amalga oshirishni Bank Kengashi hamda Bank Boshqaruvi zimmalariga yuklatish taklif qilinadi.

Mazkur taklifni qo'llab-quvvatlashingizni so'raymiz.

Bank Kengashi